



SURXONDARYO VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI (2019 yil yanvar-iyul)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5039,9 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 529,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 30,2%), kichik tadbirdorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4510,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 549,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 % ga ko'paygan) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (21,1%), Termiz (5,8 %), Boysun (5,4%) , Denov (3,6 %) Sho'rchi (3,1 %) va Muzrabot tumanlarida (2,5%) qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,2% ga o'sdi va 529,6 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,5 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 4510,3mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 4,2 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 89,5% ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirdorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Muzrabot (99,4 %), Uzun (99,0 %), Oltinsoy (96,9%) va Denov (96,9%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 10,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahrida (32,0 %), Termiz (16,4%) va Jarqo'rg'on tumanlarida (5,8 %) kuzatilgan.


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Termez shahri (23,1 foiz), Denov tumani (20,9 foiz), Sho'rchi (8,7foiz), Sherobod (5,7 foiz) va Jarqo'rg'on (5,4%) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatdi.

Tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarning
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	529,6	130,2	4510,3	104,2
Termiz Sh.	371,5	221,8	790,6	99,8
Oltinsoy	6,6	49,2	204,8	105,2
Angor	8,6	60,1	218,3	104,7
Boysun	10,4	73,5	204,7	107,8
Muzrabot	1,2	17,2	191,8	105,7
Denov	32,8	70,6	1020,0	105,2
Jarqo'rg'on	15,8	69,8	257,5	104,0
Qumqo'rg'on	9,1	56,0	204,0	104,5
Qiziriq	8,0	61,8	208,9	104,7
Sariosiyo	11,7	80,9	204,0	103,2
Termiz	23,0	114,0	117,2	104,3
Uzun	1,9	18,0	190,1	106,6
Sherobod	12,4	56,2	274,6	105,5
Sho'rchi	16,6	66,6	423,8	105,3

Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)


Jumladan, 2019 yilning yanvar-iyul oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,2 % ni tashkil etib, 108,7 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 87,4 % ulushi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**SURXONDARYO VILOYATINING
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
(2019 yil yanvar- iyul)**

Yanvar-iyul oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1341,7mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,0 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajmi kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-iyul oyilariga yakunlariga ko'ra, 911,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,7 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 67,9 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslaganda, Termiz (90,8%), Angor (90,1%), Boysun (88,7%) va Sariosiyo (83,4%) tumanlarida yuqori bo'lgan.


Yirik va kichik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 32,1 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining ulgurji savdo aylanmasining aksariyati Qumqo'rg'on (66,4%), Muzrabot (55,1%) va Jarqo'rg'on (50,8%) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Surxondaryo viloyati	1341,7	101,0	430,2	90,6	911,5	106,7
Termiz sh.	258,2	93,9	115,6	81,8	142,6	106,7
Oltinsoy	47,2	97,3	23,7	89,1	23,5	107,5
Angor	110,6	110,3	10,9	128,6	99,7	108,6
Boysun	5,9	99,8	0,7	64,7	5,2	107,2
Muzrabot	79,2	111,0	43,7	117,0	35,5	104,4
Denov	203,2	102,3	56,1	90,1	147,1	107,9
Jarqo'rg'on	121,6	108,8	61,8	112,1	59,8	105,7
Qumqo'rg'on	55,2	103,2	36,6	101,6	18,6	106,4
Qiziriq	116,9	104,0	24,6	94,9	92,3	106,7
Sariosiyo	45,1	104,3	7,5	92,5	37,6	107,0
Termiz t.	110,9	86,8	10,2	30,0	100,7	107,3
Uzun	31,1	92,6	5,5	59,6	25,6	105,3
Sherobod	117,4	112,6	22,2	165,3	95,2	104,8
Sho'rchi	39,2	92,2	11,1	70,1	28,1	105,2

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)**

Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Termiz tumanida (86,8 %) va eng yuqori o'sish esa Sherobod tumanida (112,6) qayt etilgan.

Surxondaryo viloyat statistika
boshqarmasi tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
(0371) 230-85-82